

# Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyun

## Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi – 3647,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Bozor xizmatlari o'sish surati – 106,0 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1207,1 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlanishiga imkon bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 3647,8 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari va shaxsiy xizmatlarda kuzatilmoqda.


## 2018 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (33,8 %), transport xizmatlari (24,1 %), moliyaviy xizmatlar (12,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,1 %) tashkil qildi.

Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.


### Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarining tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2018 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik sohasidagi xizmatlar (143,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (124,5 %), moliyaviy xizmatlar (122,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,9 %), ijara xizmatlari (108,2 %) da kuzatildi.


**2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<b>Hajmi, mlrd.so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</b>
<b>Andijon viloyat</b>	<b>3647,9</b>	<b>106,0</b>
<i>shaharlar:</i>		
Andijon	1631,9	108,8
Xonobod	47,6	102,3
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	211,6	105,1
Asaka	236,5	104,1
Baliqchi	171,0	103,4
Bo'z	41,7	103,4
Buloqboshi	106,8	104,9
Jalaquduq	134,8	103,7
Izboskan	168,3	104,0
Ulug'nor	34,3	102,8
Marxamat	125,3	103,2
Oltinko'l	126,7	104,9
Paxtaobod	144,5	102,9
Xo'jaobod	84,7	103,1
Shaxrihon	226,5	103,8
Qo'rg'ontepa	159,9	103,7

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Andijon shahri (1631,9 mlrd.so'm), Asaka (236,5 mlrd.so'm), Shaxrihon (226,5 mlrd.so'm), Andijon (211,6 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Ulug'nor (34,3 mlrd.so'm), Bo'z (41,7 mlrd.so'm), tumanlari va Xonobod (47,6 mlrd.so'm) shahrida kuzatilmoqda.

### 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Andijon shahri (44,6 %), Asaka 6,8 %), Shaxrihon (6,3 %), Andijon (5,7 %) tumanlari egallaydi.

Viloyat statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'lim

Ma'sul: A.Usmonov

Tel: 71(230-82-64)